

58-DARS. AMALIY MASHG'ULOT

**Misol.** Berilgan uchta  $a$ ,  $b$  va  $c$  sonlardan eng kattasini topish dasturini tuzing. Funksiyadan foydalaning.

|                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <pre>def max(a, b):<br/><br/>    if a &gt; b:<br/>        return a<br/><br/>    else:<br/>        return b<br/><br/>def max3(a, b, c):<br/><br/>    return max(max(a, b), c)<br/><br/>a = int(input())<br/>b = int(input())<br/>c = int(input())<br/><br/>print(max3(a,b,c))</pre> | $a, b$ parametrlarni qabul qiluvchi <b>max</b> nomli funksiya e'lon qilindi.                                                                                                                                                                                                     |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Agar $a > b$ bo'lsa, funksiya $a$ ni qaytaradi.                                                                                                                                                                                                                                  |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Aks holda, funksiya $b$ ni qaytaradi.                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                    | $a, b$ va $c$ parametrlarni qabul qiluvchi <b>max3</b> nomli funksiya e'lon qilindi.                                                                                                                                                                                             |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <b>max3</b> nomli funksiya <b>max</b> funksiyasini $\max(a, b \text{ va } c)$ parametrlar bilan qaytarmoqda.<br>$a$ va $b$ taqqoslanadi va eng kattasi topiladi, masalan, $a$ , keyin bu eng katta $a$ soni $c$ bilan yana taqqoslanadi va funksiya ulardan kattasini qaytaradi. |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                    | $a, b$ va $c$ ga qiymat beriladi.                                                                                                                                                                                                                                                |
| 89<br>78<br>58<br>89                                                                                                                                                                                                                                                               | 3 ta sonning kattasini topuvchi funksiya chaqirilib, ekranga natija chiqariladi.                                                                                                                                                                                                 |

1. '\*' belgisidan tomoni  $n$  ga teng kvadrat chizuvchi dastur tuzing. Protseduradan foydalaning.



| Kiruvchi ma'lumot | Chiquvchi ma'lumot                     |
|-------------------|----------------------------------------|
| $n$               | $n \times n$ ta (*) dan iborat kvadrat |
| 3                 | ***<br>***<br>***                      |

2. Berilgan  $n$  sonining bo'luvchilarini bitta qatorda probel orqali ajratib chiqaruvchi dastur tuzing. Protseduradan foydalaning.

| Kiruvchi ma'lumot | Chiquvchi ma'lumot |
|-------------------|--------------------|
| 6                 | 1 2 3 6            |

3. Berilgan  $n$  sonini rim raqamlarida ifodalovchi dastur tuzing. Protseduradan foydalaning.